

ONA TILI TA'LIMIDA GRAMMATIK KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TALQINI

Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

E-mail : ahmadjonovaumida8170@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili ta'limida grammatikani o'qitishni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or xorijiy tajribalar va ularning ta'limdagi ahamiyati, xorijiy darsliklardagi Grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beruvchi metodikalar tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ona tili ta'limi, xorijiy tajriba, grammatika, xorijiy darslik, topshiriqlar, Angliya, induktiv yondashuv, deduktiv yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье представлены сведения о передовом зарубежном опыте, способствующем дальнейшему развитию обучения грамматике в преподавании родного языка, и его значении в образовании, а также анализ методик в зарубежных учебниках, помогающих развивать грамматические навыки.*

Ключевые слова: *обучение родному языку, зарубежный опыт, грамматика, зарубежный учебник, задания, Англия, индуктивный подход, дедуктивный подход*

Abstract. *This article provides information on advanced foreign experiences that contribute to the further development of grammar teaching in native language education and their importance in education, as well as an analysis of methodologies in foreign textbooks that help develop grammatical skills.*

Keywords: *native language education, foreign experience, grammar, foreign textbook, tasks, England, inductive approach, deductive approach.*

Hozirgi kunda milliy ta'lim tizimimizni zamonaviylashtirish va jahon ta'lim standartlari asosida takomillashtirish asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini rivojlantirish, xususan, ilg'or xorij tajribalarini O'zbekiston ta'limiga joriy etish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-may sanasidagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmonida "Maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish" Rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri etib tayinlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmonida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, darsliklar va metodik materiallarni rivojlangan xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Yuqorida keltirilgan hujjatlarda belgilangan vazifalar xorijiy yetakchi tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim sharoitiga

moslashtirishning nihoyatda dolzarb ekanini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot ishi yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoniga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

O'zbekiston ta'lim sifatini oshirish maqsadida juda ko'p islohotlar olib borilmoqda. Masalan, jahon standartiga mos darsliklar yaratilyapti, o'qituvchilar malakalarni oshirish maqsadida turli xorij davlatlariga tashrif buyurishmoqda va hakazo. Biroq shunga qaramay haligacha ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq bir qancha amaliy muammolar mavjud. Xususan, ba'zi darsliklar va o'quv jarayonlarida hali ham an'anaviy, eski yondashuv ustunlik qilib kelmoqda va nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash o'rniga grammatik bilimlarni oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Natijada o'quvchilar nazariy bilimlarga ega bo'lishlariga qaramay, uni real muloqot paytida qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu muammoni hal etishda yetakchi ta'lim tizimlarida shakllangan yondashuvlar va xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda jahon ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan PISA va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini turli jabhalarda sinab ko'rishmoqda, ushbu bilimlarni hayotiy jarayonda sinay olish qobiliyatlari, matnni o'qib tushuna olish va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarini baholashmoqda. O'zbekiston ham so'nggi yillarda ushbu tadqiqotlarda qatnashib kelmoqda va bu tadqiqotlarda ijobiy natijalar ko'rsatish uchun ham xorijiy tajribalarni o'rganib chiqishimiz va ularni o'z milliy ta'lim tizimimizga integratsiya qilishimiz lozim.

Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish zamonaviy til o'rgatish metodikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, grammatik ko'nikmalarni shakllantirishda xalqaro miqyosda tan olingan metodistlarning yondashuvlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

G'arbiy metodikada grammatika endilikda shunchaki qoidalar yig'indisi sifatida emas, balki jonli muloqot vositasi – "grammaring" sifatida talqin etilmoqda. Skott Tornberi, Maykl Swan kabi nufuzli tadqiqotchilarning asarlarida grammatik shakllarni kontekst ichida, funksional tarzda o'zlashtirishga alohida urg'u berilgan. Britaniya va Finlandiya kabi ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, grammatikani deduktiv (qoidadan misolga) usuldan ko'ra, induktiv (o'quvchining o'zi qoidani kashf qilishi) usulda o'rgatish kognitiv faollikni oshiradi.

Ushbu bo'limda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishning xorijiy modellari tahlil qilinib, ularning samarali jihatlari va zamonaviy darsliklarda aks etishi masalalari ko'rib chiqiladi. Mazkur tahlil milliy maktablarimizda o'quvchilarning grammatik savodxonligini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidiki, grammatika o'qitish davomida ikki yondashuv, ya'ni deduktiv va induktiv usullar faollik ko'rsatadi. Avvalo, bu ikki usul haqida asosiy ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Xorijda til o'qitish metodologiyasi grammatikani o'qitish masalasida quyidagi savollarga javob izlamoqda:

O'quvchilar uchun grammatikaning qaysi qismlari muhim, ular qaysi qoidalarga muhtoj?

Grammatikani o'rgatishning qanday samarali usullari mavjud?

Ularni qanday o'qitgan ma'qul, induktivmi yoki deduktivmi? [1: 17]

Grammatika o'qitish metodikasida Maykl Svan yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Olim grammatikani o'zlashtirish uchun sarflanadigan vaqt va resurslar samaradorligini tahlil qilar ekan, bu jarayonni 7 "yomon" va 2 "yaxshi" sababini keltirib o'tadi.

7 "yomon" sabablar quyidagilar:

1. O'qituvchilar darslikda berilgan barcha grammatik qoidalarni o'quvchilar o'zlashtirishi shart deb hisoblashadi. Lekin darslikdagi barcha grammatik qoidalar har bir sinf uchun bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

2. Grammatika muayyan tartibga ega va o'rgatish uchun qulay – tilning lug'at tarkibi yoki talaffuz jihatlarini o'rgatishdan ko'ra grammatikani o'qitish ancha oson.

3. Test uchun qulay – grammatik testlar o'quvchilar bilimni tez va oson tarzda tekshirib olish uchun imkoniyat yaratib beradi.

4. Grammatika – "xavfsizlik yostiqchasi" – grammatikani o'rganish o'quvchi uchun ham qulay. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganayotganda grammatik qoidalar o'quvchi uchun mayoq singari xizmat qiladi va o'quvchida o'rganayotgan materialini tushunaman va nazorat qila olaman degan hissiyotni uyg'otadi. Lekin bu tuyg'u faqat illyuziya bo'lishi mumkin.

5. Grammatikani o'rganishning juda muhim deb hisoblanishi.

6. Siz butun sistemani o'rganishingiz kerak – ko'pchilik grammatikani o'zaro bog'liq bo'lgan yagona sistema va u to'g'ri ishlashi uchun undagi barcha narsani o'rganish kerak deb hisoblashadi. Grammatik tizim biror qismi olib tashlansa, butunlay ishdan chiqadigan mashina dvigateli emas, unga bir-biri bilan ba'zan chambarchas, ba'zan esa bo'sh bog'lanadigan, ba'zilar esa butunlay mustaqil elementlarning yig'indisi deb qarash to'g'riroqdir.

7. Grammatikani o'qitish darsda o'qituvchining o'quvchilardan ustun ekanini ko'rsatib turadi.[2: 148]

2ta "yaxshi" sabab

1. Tushunarliklik – tilning asosiy grammatik qoidalarini, gap tuzilishining aniq strukturalarini o'zlashtirmasdan turib tushunarli jumla tuzib bo'lmaydi.

Muvofiqlik – muayyan tilni chet tili sifatida o'zlashtiruvchilar grammatikani bilmasligi mazkur tilda so'zlovchilar jamiyati bilan integratsiya qilishiga, munosib ish topishiga xalaqit beradi. Grammatikani bilmaslik ba'zi jamiyat a'zolari ongida "o'qimagan" degan qarashni uyg'otadi. Jamiyatning mana shunday talablariga muvofiq bo'lish uchun ham grammatikani o'rganish lozim. [1: 19]

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidiki, grammatika o'qitish davomida ikki yondashuv, ya'ni deduktiv va induktiv usullar faollik ko'rsatadi. Avvalo, bu ikki usul haqida asosiy ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

Mashhur metodist olim Skott Tornberi o'zining "How to teach Grammar" kitobida bu ikki yondashuvni quyidagi ta'riflaydi. "O'quvchi grammatik qoidani tushunishiga erishishning, asosan, ikki xil usuli mavjud: deduktiv (qoidaga asoslangan) va induktiv (qoidani kashf qilish) yo'li. Birinchisida, grammatik qoida taqdim etiladi, va o'quvchi misollarni o'rganish hamda ularni tahlil qilish orqali qoida bilan ishlaydi. Ikkinchi tomondan, induktiv yondashuvda o'quvchi qoidani hali bilmagan holda misollarni o'rganadi va ushbu misollardan qoidani tushunib oladi, xulosa chiqaradi. Har ikki yondashuv ham, albatta, qoidani qo'llash avtomatik darajaga yetguncha davom etadigan keying amaliyot bosqichlariga olib kelishi mumkin." [3: 29]

Skott Tornberri ushbu kitobida grammatikani o'qitishda birinchi til va ikkinchi tilni o'zaro qiyoslaydi. Uning fikriga ko'ra, biz o'z ona tilimizni hech qanday grammatika darslarisiz, shunchaki kattalarni eshitish va muhit orqali induktiv, ya'ni tabiiy tarzda o'rganamiz. Miya qoidalarni o'zi avtomatik ravishda "ilib oladi". Shu jihatdan ham olim ikkinchi tilni o'zlashtirish uchun shu tildagi jamiyatga "sho'ng'ish", ya'ni ular bilan bir muhitda bo'lish samarali bo'lsa-da, sinf sharoitida grammatikani butunlay nazoratdan chetda qoldirish o'quvchi nutqini tizimli bo'shliqlarni keltirib chiqaradi degan fikrni bildirgan. Shu bois, Grammatik qoidalarni real vaziyatlar va namunalar yordamida induktiv yo'l bilan o'rgatishga e'tibor qaratilishi lozim. Bu jarayonda, o'qituvchining ro'li o'quvchiga tayyor qoidalarni berishdan emas, balki til ma'lumotlarini tartibga solish va o'quvchini to'g'ri xulosaga yo'naltirishdan iboratdir.

Skott Tornberri grammatikani o'qitishda induktiv metodning afzalliklarini tushuntirar ekan, o'quvchining kognitiv faolligini oshiruvchi, qoidani o'zi kashf qilish (rule-discovery) tamoyiliga alohida urg'u beradi. Yuqoridagi rasmdagi topshiriq misolida ko'rinadiki, muallif grammatik qoidani (Present simple dagi "s" qo'shimchasi) tayyor holda bermay, balki o'quvchini berilgan gaplarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarishga undaydi. Bunday jarayonda o'quvchi avval til birliklarini kuzatadi, qonuniyatni aniqlaydi va nihoyat amaliy mashqda qo'llaydi. Bunday yondashuv nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tilni chuqurroq anglash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Skott Tornberry grammatikani induktiv yondashuv asosida o'qitish haqida aytar ekan, u induktiv yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari borasida ham o'z xulosalarini berib o'tadi. Metodist olimning fikricha, o'quvchilarni qoidalarni mustaqil ravishda ishlab chiqishga undashning bir qancha afzalliklari bor. Xususan,

1. O'quvchilar o'zlari kashf etgan qoidalar, ularga tayyor holda taqdim etilgan qoidalarga qaraganda, ularning mavjud mental tuzilmalariga (dunyoqarashiga) mos tushish ehtimoli yuqori. Bu esa o'z navbatida qoidalarni yanada ma'noli, esda qolarli va amaliyotda qo'llashga qulay qiladi.

2. Jarayonga sarflangan aqliy kuch yuqori darajadagi kognitiv chuqurlikni ta'minlaydi, bu esa ma'lumotlarning yaxshi esda qolishiga xizmat qiladi.

3. Talabalar shunchaki passiv qabul qiluvchi emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar. Natijada ularda darsga bo'lgan e'tibor va motivatsiya ortadi.

4. Bu yondashuv qonuniyatlarni aniqlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ayniqsa intellektual qiyinchiliklarni yaxshi ko'radigan o'quvchilar uchun juda mos keladi.

5. Agar muammoni hal qilish jarayoni jamoaviy (guruhda) va maqsadli tilda (ingliz tilida) olib borilsa, o'quvchilar qo'shimcha til amaliyoti uchun imkoniyatga ega bo'ladilar.

6. Ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish talabalarni o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi va o'quvchining mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Skott Tornberryning fikricha, induktiv yondashuvning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

1. Qoidalarni ishlab chiqish uchun sarflangan vaqt va energiya o'quvchilarni chalg'itishi mumkin. Natijada ular til o'rganishning asosiy maqsadi tilni qo'llash emas, balki qoidalarni o'rganish deb o'ylashlari mumkin, ya'ni qoida vositadan maqsadga aylanib qoladi.

2. Qoidani mustaqil topish uchun sarflangan vaqt juda uzoq davom etishi mumkin. Bu esa dars davomida o'sha qoidani amaliyotda qo'llash uchun ajratilgan vaqtning kamayishiga olib keladi.

3. O'quvchilar tahlil jarayonida noto'g'ri qoidani o'ylab topishlari mumkin. Shuningdek, ularning o'zlari uchun chiqargan xulosalari o'ta umumiy yoki juda tor bo'lib qolishi mumkin (bu o'rganilayotgan til birligining hamma holatlariga mos kelmasligi mumkin).

4. Darsni rejalashtirish o'qituvchidan katta mehnat talab qiladi. Ular ma'lumotlarni va misollarni shunday ehtiyotkorlik bilan tanlashi va tartibga solishi kerakki, bu ma'lumotlar ham tushunarli bo'lishi, ham o'quvchining qoidani aniq shakllantirishiga xizmat qilishi lozim.

5. Ma'lumotlar qanchalik yaxshi tartibga solinmasin, tilning ba'zi sohalarini (masalan, fe'l aspektlari yoki modallik) qoidalarni mustaqil shakllantirishga qiyinchilik tug'diradi.

6. Shaxsiy o'rganish uslubi yoki o'tmishdagi ta'lim tajribasi sababli, ba'zi o'quvchilar qoidani shunchaki tayyor holda aytib berilishini afzal ko'radilar. Bunday o'quvchilar uchun induktiv yondashuv zerikarli yoki qiyin tuyulishi mumkin. [3: 31]

“Deduktiv va induktiv metodlarning nisbiy foydalari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yakuniy xulosaga kelmagan. Qisqa muddatli natijalar bo'yicha deduktiv ta'limning samaradorligi aniqlangan va ba'zi til birliklarini “izlab topishdan” ko'ra, tayyor holda “berish” yaxshiroq ekanligi haqida dalillar mavjud. Shuningdek, so'rovnomalarni ko'pchilik o'quvchilar grammatikaning deduktiv shaklda berilishini afzal ko'rishini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, o'quvchilar bir marta induktiv yondashuvga moslashib olishsa, ulardagi qarshilik kamayadi, chunki ular til muammolarini mustaqil hal qilishning foydasini ko'ra boshlaydilar. Xullas, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini inkor etib bo'lmaydi, tabiiy ravishda yuzaga keladigan ma'lumotlar ichidan qonuniyatlarni ajratib olish qobiliyati — mustaqil ta'lim olish uchun bebaho vositadir va aynan shu ko'nikmaning sinf xonasida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir” degan fikrlarni bildiradi Skott Tornberry.

Induktiv yondashuvning samaradorligi haqidagi nazariy xulosalardan so'ng, ushbu metodning amaliy isbotini Angliya maktab darsliklarida berilgan mashqlar misolida

ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Angliyaning Cambridge Primary English Learners book 5 kitobida olmoshlar mavzusi berilishida o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun induktiv yondashuv asosidagi amaliy topshiriqlarga ahamiyat qaratilgan. [4: 20]

An'anaviy darsliklarda odatda avval "Olmosh" mavzusi haqida nazariy ma'lumot berilib, so'ng mavzuga oid topshiriqlar berilardi. Ushbu darslikda esa avvaliga nazariy qoida emas, balki o'quvchi matndagi g'alizlikni o'zi sezishi va uni bartaraf etish yo'lini mustaqil ravishda kashf etishi lozim.

Topshiriq "Bu gapni qanday yaxshilash mumkin?" degan muammoli savol bilan boshlanadi. Hamda misol sifatida quyidagi ko'rinishda gaplar keltiriladi. "Chumoli Chumolining kechki ovqati uchun Chumolining oziq-ovqatini to'pladi. Chumoli Chumolining eng sevimli taomi uchun hamma masalliqalar borligiga ishonch hosil qildi."

Bunda o'quvchi shunchaki grammatik shaklni eslab qolishga emas, balki tilning uslubiy imkoniyati haqida o'ylashga majbur qiladi. Chumoli so'zining haddan tashqari ko'p takrorlanishi o'quvchining darhol e'tiborini tortadi, u matnni ravon qilish uchun "u", "uning" kabi so'zlarni ishlatish zarurligini mantiqan anglab yetadi.

Bu topshiriq grammatikani "quruq qoida" sifatida emas, balki nutqni yaxshilash vositasi sifatida taqdim etadi. O'quvchi olmoshni shunchaki so'z turkumi sifatida emas, balki matndagi "oqim"ni ta'minlovchi, takrorlarning oldini oluvchi vosita sifatida o'rganadi. Bu Tonberrining "Grammatika – bu jarayon" degan qarashiga to'la mos keladi.

Tahlilga olingan bu topshiriq o'quvchida nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Induktiv yo'l bilan olingan bilim o'quvchi xotirasida uzoqroq saqlanadi, chunki u tayyor qoidani yodlamaydi, balki til qonuniyatini o'zining mantiqiy fikrlashi va mehnati orqali aniqlaydi. Ona tili darslarimizda morfologik birliklarni o'rgatishda aynan shu kabi kontekstga asoslangan induktiv topshiriqlardan foydalanish metodik samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, grammatika bu shunchaki tilning bir qismi emas, balki u tilni o'rganish va muloqot darajasida foydalana olish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiluvchi muhim jarayon hisoblanadi, shuning uchun ham uni o'rgatish jarayonida xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanish o'qitishning samaradorlik darajasini anchagina oshira oladi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova K. Sh. Tursun. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati. "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2024-yil. 17–22-b.
2. Swan, M. Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // Methodology in language teaching – Cambridge University Press, 2002. – P. 148–152.
3. Torberry, S. How to teach grammar. // Pearson Education Limited – Cambridge University Press, 1999. – P.29-32.

4. Sally Burt, Debbie Ridgard. Cambridge Primary English Learner's book 5 – Cambridge University Press, 2020. – P.20 –23.